

## TURKIYADA TIL SIYOSATI

*Tursunov Mirzohid*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada Turkiyada amalga oshirilgan til siyosati haqida qisqacha fikr mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek, mamlakatda turk tiliga bo'lgan e'tibor, tilni soddalashtirish, terminlarni turkiylashtirish, ta'lim, turk tili ta'limi, ta'lim siyosati haqida fikr mavjud.

**Kalit so'zlar:** turk tili, usmonli turk tili, alifbo, yozuv, tilni soddalashtirish.

Davlat mohiyatan bir geografiyada vatan va yurt kabi nomlar ostida birga yashayotgan kishilar tomonidan suverenitet va huquq asosida tuzilgan tashkilotdir. Davlat millat tomonidan shakllantiriladigan tuzilmadir. Millat – bu muayyan madaniy va tarixiy xususiyatlarga ega bo'lgan odamlar tomonidan yaratilgan tuzilma bo'lib, bu tuzilmani tashkil etuvchi shaxslarni bir-biriga bog'lab turadigan va davomiylikni ta'minlaydigan narsa tildir. Xususan, Usmoniylar imperiyasi (Turkiya)da ham tilga e'tibor turli yillarda turlicha bo'lganligi uchun turlicha til siyosati amalga oshirilgan.

Usmonlilar imperiyasi bosib olgan hududlariga nisbatan bag'rikenglik siyosatini olib borib, mahalliy xalqning tili, dini va madaniyatiga hurmat bilan qaragan. Mahalliy xalqlarga o'z tilida so'zlashish va maktablardagi ta'limning mahalliy tillarda olib borilishiga to'sqinlik qilmagan. Ya'ni, Usmonlilar imperiyasi tashkil topgan davrdan Tanzimat davri (Usmonli turk sultonligida o'tkazilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar va shu islohotlar o'tkazilgan 1839 – 1870-yillar)ga qadar imperiya hududida ko'ptillilik vaziyati amal qilgan.

Usmonli imperiyasida Tanzimatgacha til masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmagan. Tanzimat davriga kelib til siyosatining ahamiyati ortdi. Bularning barchasi til masalasining asta-sekin mafkuraviy masalaga aylanib borayotganidan dalolat edi. Imperiyadagi til siyosatini davlat boshqaruv sohasida ham ko'rish mumkin. T.Shimshekning tadqiqotida diniy e'tiqodi va etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha fuqarolar, turli millatga mansub mahalliy xalqlar davlat ishida faoliyat yuritishlari, rasmiy hujjatlar bilan ishlay bilish, sulton farmonlaridan xabardor bo'lish uchun usmonli turk tilini bilishlari zarurligi<sup>1</sup> haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, Usmonli davlatida ish yuritish, tashqi aloqalar turk tilida olib borilgan<sup>2</sup>. T.Ilerining tadqiqotida sulton Abdulmajid II xorijiy mamlakatlarga tegishli kompaniyalar bilan shartnomalar va yozishmalarni turk tilida

<sup>1</sup> Şimşek T. Osmanli devleti son donem dil politikasi ve turkce egitimi. – Ankara, 2021. 199-bet.

<sup>2</sup> Karaağaç G. Dil, Tarih ve İnsan // Akçağ Yayınları. – Ankara, 47-bet.

olib borish haqida farmon chiqarilgani qayd etilgan.<sup>3</sup> Bundan ko'zlangan maqsad turk tilini butun dunyoga yoyish edi. Hukmdorlar tanzimat davrigacha turkiy bo'lmagan xalqlarga usmonli turk tilini o'rganish siyosatini tizimli ravishda qo'llamagan bo'lsa-da, turk tili arablar va albanlar orasida keng foydalanilgan<sup>4</sup>. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, Imperiya tasarrufidagi Suriya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Misr, Shimoliy Afrikaning oddiy xalqlari arabcha, elita tabaqa esa turkcha so'zlashar edi. Sado'g'luning fikricha, bu xalqlarning turkcha gapirishiga turli sabablar mavjud edi. Birinchidan, yuqori lavozimlarda xizmat qilish, harbiy xizmatni o'tashga majburlik kabi sabablar bo'lsa-da, eng asosiy sababi Usmonlilar imperiyasi kabi qudratli davlat hukmdorlari bilan bir tilda gaplashish imkonini yaratar edi<sup>5</sup>, shuningdek, hukmdorlar tabaqa tilini egallash ijtimoiy mavqe ko'rsatkichlaridan biri ham edi.

Tanzimat davrida ta'lim sohasida ham bir qator amaliy ishlar bajarilgan. 1869-yilda "Umumiy ta'lim to'g'risida"gi nizam ishlab chiqilib, imperiya tarkibidagi barcha boshlang'ich ta'lim muassasalarida turk tilini o'qish majburiy qilib belgilangan. "Umumiy ta'lim to'g'risida"gi nizomga muvofiq shahar maktablarida turk tili darslari tashkil etilgan, ammo chekka qishloq maktablarida o'qituvchi yetishmasligi sababli turk tili darslari amaliyotga tatbiq etilmagan<sup>6</sup>ligi T.Shimshekning tadqiqotlarida qayd etilgan. Shuningdek, ushbu nizomga ko'ra, turk tili imperiya hududida rasmiy til sifatida belgilangan. 1876-yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning 18-moddasida "Turk tili mamlakatning rasmiy tili" deb belgilanishi turk tilining siyosiy yutug'i edi. Mazkur konstitutsiyaning

16-moddasida "Turli millatlarning e'tiqodlari bo'yicha ta'lim berish tartibiga ziyon yetkazilmaydi"<sup>7</sup> tarzidagi qonun ham mavjud edi. S.Orhanning "Turkiyada til siyosati, til huquqlari va ilovalari" nomli tadqiqotida Konstitutsiyaning 16-moddasiga asoslanib, musulmon bo'lmagan xalqlar bu qoidaga amal qilmaganliklari va o'z maktablarida turk tilini o'qitmaganliklari haqida fikrlar mavjud. Bu muammo hal bo'lmagach, 1894-yilda turk tilini o'rgatish haqida yana qonun qabul qilindi, lekin bu qoidaga ham amal qilinmadi.<sup>8</sup> Xususan, hukumatning 1894-yil 18-mayda e'lon qilingan farmoyishi bilan maktablarda beriladigan ta'lim arab va forscha iboralardan xoli bo'lishi talab qilingan.

1869-yilda qabul qilingan "Umumiy ta'lim to'g'risida"gi nizomga ko'ra:  
– turk tili maktablarda o'qitilishi kerak bo'lgan majburiy darslar orasida bo'lishi;

<sup>3</sup> Ileri T. Meclis çalışmaları kapsamında Amasya Mebusu Ömer Lütfi Bey'in "Bilûmum şirketlerde Türkçe Lisani'nın kullanılmasına dair" Kanun teklifi üzerine mecliste yapılan tartışmalar. *Turkish Studies-History*, 15(2), 515-531. <https://dx.doi.org/10.29228/TurkishStudies.42777>

<sup>4</sup> Sadoğlu H. *Türkiye'de ulusculuk ve dil politikaları*. – İstanbul, 2010.

<sup>5</sup> Sadoğlu H. *Türkiye'de ulusculuk ve dil politikaları*. – İstanbul, 2010.

<sup>6</sup> Şimşek T. *Türkçe ders öğretime bir bakış / Eğitim bilimlerinde araştırma ve değerlendirmeler*. – Ankara, 2021. 423-bet.

<sup>7</sup> 1876 Kânûn-ı Esâsî. <https://www.anayasa.gov.tr/tr/mevzuat/onceki-anayasalar/1876-k%C3%A2n%C3%BBn-i-es%C3%A2s%C3%AE/>

<sup>8</sup> Orhan S. *Dil Politikaları, Dil Hakları ve Türkiye'de Uygulamaları*. Yüksek lisans tezi. – Ankara, 2012. 86-bet.

- maktabga kirish imtihonlari va davlat xizmati imtihonlarida usmonli tili yoki turk tilini bilish shart ekanligi;
- har bir maktabda, jumladan, nomusulmon maktablarida turkcha ta'lim berish;
- ba'zi maktablarning kirish imtihonlarida turk tilidan mukammal foydalanishni talab qilish;
- kasb tanlashda turkchani bilish;
- maktablarda turk tilining turli malakalari (o'qish, imlo, xattotlik, yozuv) bo'yicha kurslar bo'lishi zarurligi<sup>9</sup> kabi qoidalar mavjudligi Usmonli davlatining o'sha davrdagi til siyosatini belgilab beradi.

Usmonlilar imperiyasida oliy ta'limga ham alohida e'tibor berilgan. Xususan, tibbiyot bilim yurtida o'qitiladigan darslar fransuz tilida bo'lganligi, chet el fuqarolari chet tillari, ayniqsa, fransuz tilini o'rganishda turklardan oldindaligi turk talabalari tomonidan doimiy tanqid qilingan. Natijada tibbiyot tili fransuz tilidan turk tiliga o'zgartirilgan. 1866-yilga kelib tibbiyot tili butunlay turkcha bo'ldi. Natijada fransuz tiliga oid ko'plab tibbiy atamalar turkiyga tarjima qilinib, ularning arabcha va forsha muqobillari ishlab chiqildi.<sup>10</sup> Fortna tadqiqotida ona tilisi turk tili bo'lmagan arman va yahudiy xalqlari uchun turk tilini va faqat arabcha yozishni bilganlarga turkchani boshqa alifbolarda yozishni o'rgatish uchun mo'ljallangan kitoblar nashr qilingan. Ko'ptilli imperiyada bunday kitoblarning mavjudligi turk tilining so'zlashuv tilida qolganligini va turk tilining turli alifbolarda yozilishiga ruxsat berilganligini ko'rsatadi. Ayni paytda turk tilini o'rgatish uchun turli yo'llar bilan harakat qilinganligini ko'rish mumkin.

Tanzimat davrida yuzaga kelgan til muammolari yuqorida qayd etilganlar bilan cheklanmaydi. Usmonli turk tilining bu davrda muhokama qilingan eng katta muammolaridan biri imlo masalasi edi. Chunki arab harflarining turkchaga uyg'un emasligi, bu yozuvning turk tilidagi unli tovushlarni ifodalash imkoniyati yo'qligi asosiy sabab edi. 1862-yilda til va imlo masalalariga bag'ishlangan konferensiya tashkil etildi. Ushbu konferensiyada Munif Afandi alifbo masalasiga oid ikki taklif bildiradi. Birinchisi, arab tiliga keyinchalik kirib kelgan harakatlarni qo'yib o'qish, ikkinchisi, unli harflarga undosh harflarni qo'shib o'qishdan iborat edi. Bu davrga kelib mamlakatda arab alifbosidan kechib, lotin alifbosiga o'tishni ma'qullaganlar ham bo'lgan. Ammo "Taraqqiy" jurnali yozuvchisi Hayrettin imlo va alifbo masalasi siyosiy masala ekanligi qayd qilib, o'z takliflarini va e'tirozlarini bildiradi. Xususan, lotin harflaridan foydalanish ta'limni rivojlantirishda katta afzalliklar berishini, ilmiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan ancha foydali bo'lishini ham ta'kidlaydi. Shuningdek, u

<sup>9</sup> Iqtibos ushbu manbadan olindi: Tuğba Ş. Osmanlı Devleti Son Dönem Dil Politikası ve Türkçe Eğitimi. – Ankara, 2021. 199-bet.

<sup>10</sup> Sadoğlu H. Türkiye'de ulusculuk ve dil politikaları. – Istanbul, 2010.

turkiylar qo'llayotgan harflar Qur'on harflari bo'lganligi sababli, lotin alifbosiga o'tishni yoqlamaydi<sup>11</sup>.

Yevropada boshlangan ma'rifatchilik, modernizm va milliylik tushunchalari Usmonli ziyolilarini ham harakatga keltirdi. Usmonlilar imperiyasiga bosmaxonaning kirib kelishi oddiy xalq ham tushunadigan asarlarni yozish avj oldi. Qolaversa, mumtoz asarlarni turkchaga tarjima qilish va turkchani ta'lim tiliga aylantirishga qaratilgan harakatlar xuddi shu davrda boshlangan. Bu davrga kelib tilni soddalashtirish harakati jadallashdi. Tilni soddalashtirishdan maqsad, xalqni ziyoli qilish, yozuv tizimini soddalashtirish edi.

Xususiy gazetachilik kengaygani sari ommaga yetib borishga intilish kuchaydi va natijada ko'proq gazeta sotish maqsadida oddiy turkiy tildan foydalanish keng tarqaldi, bu davrga kelib, hatto eski usmonli tili ham o'z mavqeyini yo'qota boshladi. Jurnalistikaning turk tilini soddalashtirishga qo'shgan yana bir hissasi fransuz tilidan tarjima qilingan ishlarda ko'rinadi. O'sha davrda muhim xabarlarni fransuz va ingliz manbalari e'lon qilgan. Bu xabarlarni usmonli turk xalqiga yetkazish uchun sodda turk tiliga tarjima qilingan. Ushbu manbalardan qilingan tarjimalarda ba'zi atamalarning turkcha muqobili bo'lgani uchun bu so'zlar o'z holicha turkchaga o'girila boshlagan va G'arb tillaridan so'zlar turk tiliga kira boshlagan.

Turk tilini soddalashtirish masalasi birinchi marta Abdulhamid II davrida rasmiy idoralar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Bunga misol sifatida, o'sha davrda xalq tomonidan qo'llangan, ammo yozma adabiy tilga kirmagan so'zlar muallimlar tomonidan to'planib, Maorif vazirligiga yuborilgan. Bundan maqsad arabcha va forsha so'zlar, birikmalar o'rniga xalq tilida mavjud bo'lgan mahalliy so'zlarni qo'llashni amaliyotga tadbiiq etish edi. Biroq, ushbu tashabbus o'qituvchilarning noroziligi tufayli amalga oshmay qolgan edi<sup>12</sup>.

1876-yilda qabul qilingan konstitutsiyaning 57-moddasida "Parlamentning ishchi tili turkcha", 68-moddasida esa "Deputatlikka saylanish uchun turk tilini bilish shartligi" qayd qilingan.<sup>13</sup> 1877-yilda o'zini-o'zi boshqaruv organlari haqida qonun qabul qilindi, bunga ko'ra, shahar kengashi a'zolari turk tilini bilishlari shart edi. Bu parlamentda katta munozaralarga sabab bo'ldi va bu borada turli g'oyalar ilgari surildi. Xususan, arman millatiga mansub deputatlar turkiyalik deputatlarning konstitutsiyada turk tilining rasmiy til bo'lishi kerak, degan fikriga keskin munosabat bildirdilar va konstitutsiyadan maqsad biror element yoki tilni ajratib ko'rsatish emas, balki Usmonli imperiyasi tarkibidagi barcha xalqlarga teng munosabatda bo'lish ekanligini ta'kidlaydilar. Turk tilining rasmiy til ekanligi va yozishmalarning turk tilida olib

<sup>11</sup> Koloğlu O. Okuryazarlık ve Dil Sorunumuz // Doğan Medya Grubu. – İstanbul, 2012. 74-76-betlar.

<sup>12</sup> Orhan S. Dil Politikaları, Dil Hakları ve Türkiye'de Uygulamaları. Yüksek lisans tezi. – Ankara, 2012. 86-bet.

<sup>13</sup> 1876 Kânûn-ı Esâsî. <https://www.anayasa.gov.tr/tr/mevzuat/onceki-anayasalar/1876-k%C3%A2n%C3%BBn-i-es%C3%A2s%C3%AE/>

borilayotgani haqida nomusulmon fuqarolarning, shuningdek, asli arab va suriyalik deputatlarning ham e'tirozlariga sabab bo'lgan. Ular hatto bu masala bo'yicha qo'mita tuzish kerakligini ta'kidladilar, ammo bu taklif turk millatiga mansub vakillar tomonidan rad etilgan.

Xullas, Usmoniylar davlatining so'nggi davrida turli ta'lim muassasalari ochilgan bo'lib, konstitutsiyaga muvofiq ushbu maktablarda turk tilini o'qitish qonun bilan majburiy qilib qo'yilgan. Garchi juda keng chegaralarga ega bo'lgan, juda xilma-xil etnik elementlarni o'z ichiga olgan buyuk imperiya vaqti-vaqti bilan turk tilini o'rgatadigan o'qituvchi topishga qiynalsa-da yoki o'z davrining og'ir sharoitlari va moddiy imkoniyatlari tufayli maktablar uchun samarali jismoniy muhit yarata olmasada davlat tomonidan qabul qilingan qarorlar orqali turk tiliga bo'lgan e'tiborni ko'rsatdi. Ta'lim tili sifatida turk tilining afzal ko'rilishi orqali turk tilining birlashtiruvchi unsur sifatida qaralayotganini ko'rish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Şimşek T. Osmanli devleti son donem dil politikasi ve turkce egitimi. – Ankara, 2021. 199-bet.
2. Şimşek T. Turkce ders oğretime bir bakis / Egitim bilimlerinde arastirma ve degerlendirmeler. – Ankara, 2021. 423-bet.
3. Karaağaç G. Dil, Tarih ve İnsan // Akçağ Yayınları. – Ankara, 47-bet.
4. Koloğlu O. Okuryazarlık ve Dil Sorunumuz // Doğan Medya Grubu. – İstanbul, 2012. 74-76-betlar.
5. İleri T. Meclis çalışmaları kapsamında Amasya Mebusu Ömer Lütfi Bey'in "Bilûmum şirketlerde Türkçe Lisanı'nın kullanılmasına dair" Kanun teklifi üzerine mecliste yapılan tartışmalar. Turkish Studies-History, 15(2), 515-531. <https://dx.doi.org/10.29228/TurkishStudies.42777>
6. Orhan S. Dil Politikaları, Dil Hakları ve Türkiye'de Uygulamaları. Yüksek lisans tezi. – Ankara, 2012. 86-bet.
7. 1876 Kânûn-ı Esâsî. <https://www.anayasa.gov.tr/tr/mevzuat/onceki-anayasalar/1876-k%C3%A2n%C3%BBn-i-es%C3%A2s%C3%AE/>
8. Tuğba Ş. Osmanlı Devleti Son Dönem Dil Politikası ve Türkçe Eğitimi. – Ankara, 2021. 199-bet.
9. Sadoğlu H. Türkiye'de ulusculuk ve dil politikaları. – İstanbul, 2010.